



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3816
2026 - yil 15 - Aprel

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI DIREKTORINING
BUYRUG'I

**O'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlarining milliy reytingini yuritish
va kasbiy ta'lim tashkilotlarini rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi
nizomni tasdiqlash haqida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi PF-76-son "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni hamda 2025-yil 23-oktabrdagi PQ-316-son "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq **buyuraman**:

1. O'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlarining milliy reytingini yuritish va kasbiy ta'lim tashkilotlarini rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Namangan, Andijon, Farg'ona, Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro, Navoiy va Xorazm viloyatlari hokimliklari hamda Toshkent shahar hokimligi bilan kelishilgan.

3. Ushbu buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Direktor
2026-yil 18-mart
1-son



YULDASHEV BAXTIYOR
GAYRADJONOVICH

Kelishildi:

Vazir
2026-yil 18-mart



KUCHKAROV DJAMSHID
ANVAROVICH

Buxoro viloyati hokimi
2026-yil 29-yanvar



ZARIPOV BOTIR KOMILOVICH

Sirdaryo viloyati hokimi
2026-yil 29-yanvar



TURDIMOV ERKINJON
OQBUTAYEVICH

Toshkent viloyati hokimi
2026-yil 29-yanvar



MIRZAYEV ZOYIR TOIROVICH

Xorazm viloyati hokimi
2026-yil 29-yanvar



RAXIMOV JO'RABEK
RAXIMOVICH

Vazir
2026-yil 28-yanvar



SHARIPOV KONGRATBAY
AVEZIMBETOVICH

Andijon viloyati hokimi
2026-yil 28-yanvar



ABDURAXMANOV SHUXRATBEK
KUSHAQBAYEVICH

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi Raisi
2026-yil 28-yanvar



ERMANOV FARXOD
URAZBOYEVICH

Jizzax viloyati hokimi
2026-yil 28-yanvar



MUSTAFOYEV ULUG'BEK
MAVLONOVICH

Namangan viloyati hokimi
2026-yil 28-yanvar



ABDURAZAKOV SHAVKAT
SHOKIRDJANOVICH

Farg`on viloyati hokimi
2026-yil 27-yanvar



BOZAROV XAYRULLO
XAYITBAYEVICH

Surxondaryo viloyat hokimi
2026-yil 26-yanvar



QOSIMOV ULUG`BEK
BERDIQOBILOVICH

Navoiy viloyati hokimi
23-Yanvar 2026-yil



TURSUNOV NORMAT
TULKUNOVICH

Samarqand viloyati hokimi
23-Yanvar 2026-yil



BOBOYEV ADIZ MUZAFAROVICH

Toshkent shahar hokimi
22-Yanvar 2026-yil



UMURZAKOV SHAVKAT
BURANOVICH

Qashqadaryo viloyati
hokimi
2026-yil 21-yanvar



AZIMOV MUROTJON
BERDIALIYEVICH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi direktorining 2026-yil
18-martdagi 1-son buyrug'iga
ILOVA

O'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlarining milliy reytingini yuritish va kasbiy ta'lim tashkilotlarini rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi NIZOM

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi (bundan buyon matnda Agentlik deb yuritiladi) tomonidan o'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlarining milliy reytingini yuritish hamda kasbiy ta'lim tashkilotlarini rag'batlantirish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

hisobot yili – o'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlarining milliy reytingi natijalarini shakllantirishda inobat olinadigan kalendar yili;

indikator – o'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlari faoliyatining muayyan mezon bo'yicha sifat va miqdor ko'rsatkichini ifodalovchi hamda raqamli qiymatga ega bo'lgan o'lchov birligi;

ko'rsatkichning solishtirma og'irlik koeffitsiyenti – muayyan indikator bo'yicha ballni hisoblab chiqarishda foydalaniladigan ko'rsatkichlarning o'zaro bir-biriga nisbatan ahamiyatini belgilovchi raqamli ko'rsatkich;

milliy reyting – o'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlari faoliyati samaradorligini ushbu Nizomning 2 va 3-ilovalarida belgilangan mezonlar va indikatorlar asosida baholash natijasida ularning reytingda egallagan o'rnini aniqlash tizimi;

maxsus platforma – milliy reytingni yuritish uchun mo'ljallangan, ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va natijalarni avtomatik hisoblash imkonini beruvchi Agentlikning dasturiy ta'minoti.

2. Bitiruvchilarga ega bo'lgan davlat ta'lim tashkilotlari milliy reyting obyekti hisoblanadi, bundan harbiy va harbiylashtirilgan ta'lim tashkilotlari mustasno.

3. O'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlarining milliy reytinglari alohida yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi PF-158-son "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari [to'g'risida](#)"gi Farmoniga asosan xalqaro ta'lim dasturlari joriy qilingan [texnikumlar](#) hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi PQ-316-son "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari [to'g'risida](#)"gi qarori bilan tashkil etilgan ilg'or kasbiy mahorat [texnikumlari](#) uchun Agentlik tomonidan mazkur Nizomga muvofiq alohida reyting yuritiladi.

4. Quyidagilar o'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlarining (bundan buyon matnda ta'lim tashkiloti deb yuritiladi) milliy reytingini yuritish va kasbiy ta'lim tashkilotlarini rag'batlantirishning asosiy maqsadlari hisoblanadi:

ta'lim tashkilotlari o'rtasida sog'lom, shaffof va natijaga yo'naltirilgan raqobat muhitini shakllantirish va kasbiy ta'lim tashkilotlarining uzluksiz rivojlanishini rag'batlantirish;

o'quvchilar va pedagog kadrlarning kasbiy hamda akademik mobilligini kengaytirish, shu jumladan xorijiy stajirovka, malaka oshirish va boshqa ta'limga oid dasturlardagi ishtirokini qo'llab-quvvatlash;

ta'lim tashkilotlarining respublika va xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirish;

mehnat bozori ehtiyojlaridan kelib chiqib, malakali, raqobatbardosh va zamonaviy kasbiy kompetensiyalarga ega kadrlarni tayyorlash jarayonida ish beruvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikni kuchaytirish;

ta'lim xizmatlari sifati va mehnat bozori talablari uyg'unligini ta'minlashda kadrlar tayyorlash sifatini ilg'or milliy va xalqaro tajribalar asosida oshirishga ko'maklashish;

ta'lim tashkilotlari faoliyati samaradorligini aniq, o'lchash imkoni mavjud bo'lgan va solishtirma indikatorlar (mezonlar) asosida baholash, milliy reyting natijalari bo'yicha xolis, ochiq va ishonchli axborotni keng jamoatchilikka taqdim etish;

ta'lim tizimida ma'lumotlarga asoslangan boshqaruvni rivojlantirish, milliy reyting natijalaridan ta'lim siyosatini takomillashtirish, resurslarni samarali taqsimlash va strategik qarorlar qabul qilishda foydalanish.

5. Milliy reytingni yuritish va kasbiy ta'lim tashkilotlarini rag'batlantirish ushbu Nizomning 1-ilovasida keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

2-bob. Milliy reyting ma'lumotlarini shakllantirish

6. Milliy reyting ma'lumotlari hisobot yili oxirgi ish kuni holati bo'yicha ushbu yilning yakuniy natijalariga asosan shakllantiriladi.

Bunda hisobot yilidagi "bitiruvchilarning bandlik holati" indikatori bo'yicha ko'rsatkichlarning, istisno tariqasida, o'quv yili yakunlanganidan keyingi o'n ikki oy yakuni bo'yicha holati hisobga olinadi.

7. Milliy reyting ma'lumotlari maxsus platformada quyidagi manbalardan shakllantiriladi:

vazirlik va idoralarning axborot tizimlaridagi ma'lumotlar;

ta'lim tashkilotlari tomonidan maxsus platformaga kiritiladigan hujjatlar;

Agentlik tomonidan o'tkaziladigan umummilliy so'rovnoma natijalari.

8. Agentlik tomonidan hisobot yilidan keyingi yilning 1-fevraliga qadar vazirlik va idoralarning axborot tizimlaridagi ma'lumotlar maxsus platformaga ularning tegishli axborot tizimlarini integratsiya qilgan holda olinadi, bundan "bitiruvchilarning bandlik holati" indikatori bo'yicha ma'lumotlar mustasno.

Hisobot yilidagi "bitiruvchilarning bandlik holati" indikatori bo'yicha ma'lumotlar hisobot yilidan keyingi yilning 1-iyulga qadar olinadi.

Maxsus platformaga axborot tizimlarini integratsiya qilish imkoni bo'lmagan hollarda ma'lumotlar vazirlik va idoralardan so'rov asosida olinib, Agentlik tomonidan maxsus platformaga kiritiladi.

Maxsus platformada vazirlik va idoralarning axborot tizimlaridagi ma'lumotlar aks ettirilganda ushbu ma'lumotlarning manbasi hamda ularni taqdim etgan vazirlik yoki idoraning

nomi ta'lim tashkilotiga ko'rsatilishi lozim.

9. Ta'lim tashkiloti tomonidan hisobot yilidan keyingi yilning 1-fevraliga qadar quyidagi hujjatlar maxsus platformaga kiritiladi:

Xorijiy tillar va umumta'lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar [ro'yxatiga](#) (ro'yxat raqami 3515, 2024-yil 29-may) muvofiq o'quvchilarning xorijiy tillar va umumta'lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlari;

pedagoglar va ishlab chiqarish ta'limi ustalarining (bundan buyon matnda pedagoglar deb yuritiladi) xorijda oflayn shaklda malaka oshirganligi hamda stajirovka o'taganligi to'g'risidagi sertifikatlari;

ishlab chiqarilgan mahsulotlarni (tovarlar, ish va xizmatlar) sotishdan va boshqa ta'lim xizmatlarini ko'rsatishdan tushgan mablag'lar miqdorini tasdiqlovchi hisob-fakturalar (kasbiy ta'lim tashkilotlari).

Bunda, davlat organi va tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha tushgan mablag'larning miqdorini tasdiqlovchi hisob-fakturalarni yuklash talab etilmaydi hamda mazkur hisob-fakturalar ushbu Nizomning 8-bandiga muvofiq avtomatik tarzda olinadi.

10. Ta'lim tashkiloti tomonidan maxsus platformaga kiritilgan ma'lumotlarning asoslanganligi, ishonchliligi va mazkur Nizomning 9-bandida belgilangan muddatda taqdim etilishi uchun ta'lim tashkilotining rahbari shaxsan javobgar hisoblanadi.

Mazkur Nizomning 9-bandida belgilangan muddatda maxsus platformaga kiritilmagan ma'lumotlar milliy reytingni shakllantirishda inobatga olinmaydi.

11. Umummilliy so'rovnoma o'quvchilarga yaratilgan shart-sharoitlar, o'quvchilarning ta'lim sifatidan qoniqish darajasi, pedagoglar uchun yaratilgan sharoitlar, ish beruvchilar o'rtasida bitiruvchilarning nufuzi hamda moddiy-texnik baza bilan ta'minlanganlik darajasi yo'nalishlarida o'tkaziladi.

12. Umummilliy so'rovnoma hisobot yilidan keyingi yilning 1-martidan 30-mayiga qadar o'tkaziladi hamda ushbu so'rovnomada quyidagilar ishtirok etishi mumkin:

ta'lim shakli va darajalaridan qat'iy nazar ta'lim tashkilotida tahsil olayotgan o'quvchilar;

ta'lim tashkilotida faoliyat olib borayotgan pedagoglar;

hisobot yilida o'qishni yakunlagan ta'lim tashkilotining bitiruvchilarini ishga qabul qilgan ish beruvchilar.

13. Umummilliy so'rovnoma bo'yicha ta'lim tashkilotining natijalari ushbu tashkilotda tahsil olayotgan o'quvchilarning jami sonining hamda asosiy shtatda va ichki o'rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib boruvchi pedagoglarning jami sonining kamida tegishli ravishda 20 foizi umummilliy so'rovnomada ishtirok etgan taqdirda hisobga olinadi.

20 foizdan past ishtirok kuzatilgan taqdirda ta'lim tashkilotiga umummilliy so'rovnoma asosida aniqlanadigan tegishli indikatorlar bo'yicha ball berilmaydi.

14. Agentlik hisobot yilidan keyingi yilning 1-sentabriga qadar maxsus platformadagi ma'lumotlarni tahlil qiladi hamda ularning haqqoniyligini masofaviy monitoring, solishtirish yoki joyiga chiqqan holda o'rganish orqali verifikatsiyadan o'tkazadi.

3-bob. Milliy reyting natijalarini shakllantirish

15. Milliy reyting natijalari ushbu Nizomning 2-ilovasida keltirilgan O'rta maxsus ta'lim tashkilotlari milliy reytingining indikatorlari va ular bo'yicha ko'rsatkichlarni hisoblash tartibi hamda mazkur Nizomning 3-ilovasida keltirilgan Kasbiy ta'lim tashkilotlari milliy reytingining indikatorlari va ular bo'yicha ko'rsatkichlarni hisoblash tartibiga muvofiq ko'rsatkichning solishtirma og'irlik koeffitsiyentini hisobga olgan holda shakllantiriladi.

16. Milliy reyting indikatorlari bo'yicha ballarni hisoblash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1) ushbu Nizomning 2 va 3-ilovalarida keltirilgan ko'rsatkichlarni shakllantirish formulalari asosida barcha indikatorlar kesimida ta'lim tashkilotlarining ko'rsatkichlari shakllantiriladi;

2) har bir indikator bo'yicha eng yuqori natijaga ega bo'lgan ta'lim tashkilotiga ushbu indikator uchun belgilangan eng yuqori ball beriladi;

3) boshqa ta'lim tashkilotlarining ballari ushbu indikator bo'yicha eng yuqori ball to'plagan ta'lim tashkilotining ko'rsatkichiga nisbatan proporsional normallashtirish asosida hisoblanadi hamda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$I_b = \frac{B_m}{K_m} * K_t$$

Bunda

I_b – indikator bo'yicha baholanayotgan ta'lim tashkilotiga berilgan ball;

B_m – indikator bo'yicha ushbu Nizomning 2 va 3-ilovalarida ko'rsatilgan eng yuqori ball;

K_m – indikator bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega ta'lim tashkilotining ko'rsatkichi;

K_t – indikator bo'yicha baholanayotgan ta'lim tashkilotining ko'rsatkichi;

4) har bir indikator bo'yicha hisoblangan ballar yig'indisi ta'lim tashkilotining reytingini belgilaydi;

5) indikatorlar bo'yicha hisoblangan ballar yig'indisi teng bo'lgan ta'lim tashkilotlarining milliy reytingdagi o'rinlari o'rta maxsus ta'lim tashkilotlari uchun "oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan bitiruvchilar ulushi" hamda kasbiy ta'lim tashkilotlari uchun "bitiruvchilarning bandlik holati" indikatorlari bo'yicha to'plangan balldan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Mazkur indikatorlar bo'yicha ham ballar teng bo'lgan taqdirda ularga milliy reytingda bir xil o'rin beriladi.

17. Agentlik hisobot yilidan keyingi yilning 20-sentabriga qadar milliy reyting natijalarini shakllantiradi hamda mazkur Nizomning 4-bobiga muvofiq shikoyatlarni taqdim etish imkoniyatini berish maqsadida ta'lim tashkilotlariga maxsus platforma orqali yuboradi.

18. Milliy reytingning yakuniy natijalari hisobot yilidan keyingi yilning 10-oktabriga qadar Agentlikning rasmiy veb-sayti va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

4-bob. Milliy reyting natijalari yuzasidan shikoyat qilish tartibi

19. Ta'lim tashkilotlarining shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun Agentlikda kamida uch nafar a'zodan iborat tarkibda Agentlik direktorining buyrug'i asosida Apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

20. Ta'lim tashkiloti milliy reyting natijalaridan norozi bo'lgan taqdirda maxsus platforma orqali kelib tushgan kundan boshlab o'n kun ichida Apellyatsiya komissiyasiga shikoyat qilish huquqiga ega.

Shikoyat Apellyatsiya komissiyasiga maxsus platforma orqali elektron shaklda beriladi.

21. Shikoyatda aks ettirilgan masalalar bilan bog'liq bo'lgan indikatorlar ta'lim tashkiloti tomonidan aniq ko'rsatilishi lozim.

22. Ta'lim tashkiloti shikoyatni ko'rib chiqishda ishtirok etish huquqiga ega. Bunda, Apellyatsiya komissiyasi ta'lim tashkilotini shikoyat ko'rib chiqilishidan uch kun oldin uni ko'rib chiqish vaqti va joyi haqida maxsus platforma orqali xabardor qiladi.

23. Apellyatsiya komissiyasi shikoyatni mazkur shikoyat kelib tushgan kundan boshlab o'n kun ichida ko'rib chiqadi hamda quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

e'tiroz asossiz deb topilganda milliy reyting natijalarini o'zgarishsiz qoldirish;

e'tiroz asosli deb topilganda milliy reyting natijalariga tegishli o'zgartirishlar kiritish.

24. Apellyatsiya komissiyasi unda a'zolarning kamida uchdan ikki qismi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi.

Apellyatsiya komissiyasining qarori oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi va bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Berilgan ovozlar soni teng bo'lib qolgan taqdirda, Apellyatsiya komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

25. Apellyatsiya komissiyasining shikoyat ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qarori ushbu qaror qabul qilingan kuni maxsus platforma orqali ta'lim tashkilotiga yuboriladi.

5-bob. Kasbiy ta'lim tashkilotlarini milliy reyting natijalari asosida rag'batlantirish

26. Milliy reytingda eng yuqori o'rinlarni egallagan 50 ta kasbiy ta'lim tashkilotining har biri Davlat budjeti mablag'lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining 3 000 baravari miqdorida [rag'batlantiriladi](#).

27. Agentlik O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Kasbiy ta'lim agentligi (bundan buyon matnda Kasbiy ta'lim agentligi deb yuritiladi) bilan birgalikda milliy reyting natijalari shakllantirilganidan so'ng rag'batlantiriladigan kasbiy ta'lim tashkilotlarining ro'yxatini milliy reytingning yakuniy natijalari bilan birga e'lon qiladi.

28. Kasbiy ta'lim agentligi rag'batlantirish to'lovi sifatida ajratilgan mablag'larni kasbiy ta'lim tashkilotlarining budjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasi shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga milliy reytingning yakuniy natijalari e'lon qilingan kundan boshlab o'n besh ish kuni muddatda o'tkazadi.

29. Rag'batlantirish to'lovi sifatida ajratilgan mablag'lar Kasbiy ta'lim agentligiga ajratilgan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi.

30. Rag'batlantirish to'lovi sifatida ajratilgan mablag'larni quyidagi maqsadlar uchun yo'naltirishga ruxsat beriladi:

80 foiz – moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, shu jumladan zarur jihozlarni xarid qilish, laboratoriya va ustaxonalar [barpo etish uchun](#);

20 foiz – kasbiy ta'lim tashkilotining pedagogik kengashi qaroriga muvofiq rahbar va xodimlarni moddiy rag'batlantirish, shu jumladan, ularga ustama to'lovlarni tayinlash, xodimlarni malaka oshirish va tajriba almashish uchun xorijga yuborish [xarajatlari uchun](#).

31. Milliy reyting natijalariga binoan rag'batlantirilgan kasbiy ta'lim tashkilotlari uchun keyingi ikki yil mobaynida milliy reytingda ishtirok etmaydi.

6-bob. Yakuniy qoida

32. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

O'ra
maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlarining milliy reytingini yuritish
va kasbiy ta'lim tashkilotlarini rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi
nizomga
1-ILOVA

**Milliy reytingni yuritish va kasbiy ta'lim tashkilotlarini rag'batlantirish
SXEMASI**

Bosqich	Mas'ullar	Amalga oshiriladigan ishlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi	Vazirlik va idoralarning axborot tizimlaridagi ma'lumotlarni olish	1-fevralga qadar
2-bosqich	Ta'lim tashkiloti	Maxsus platformaga tegishli hujjatlarni kiritish	1-fevralga qadar
3-bosqich	Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi	O'quvchilar, pedagoglar va ish beruvchilar o'rtasida umummilliy so'rovnoma o'tkazish	1-martdan 30-mayga qadar
4-bosqich	Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi	1. Maxsus platformadagi ma'lumotlarni tahlil qilish va verifikatsiyadan o'tkazish 2. Milliy reyting natijalarini shakllantirish va ta'lim tashkilotlariga yuborish	1-sentabrga qadar 20-sentabrga qadar
5-bosqich	Ta'lim tashkiloti	Milliy reyting natijalari yuzasidan shikoyat qilish	o'n kun
6-bosqich	Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi	Ta'lim tashkilotlarining shikoyatlarini ko'rib chiqish	o'n kun
7-bosqich	Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi	Milliy reytingning yakuniy natijalarini e'lon qilish	10-oktabrga qadar
8-bosqich	Kasbiy ta'lim agentligi	Rag'batlantirish mablag'larini kasbiy ta'lim tashkilotiga o'tkazib berish	o'n besh ish kuni

Izoh

Mazkur sxemaning 1–2-bosqichlari 2026-yil uchun, istisno tariqasida, 1-avgustga qadar amalga oshiriladi.

O'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlarining milliy reytingini
yuritish va kasbiy ta'lim tashkilotlarini rag'batlantirish tartibi
to'g'risidagi nizomga
2-ILOVA

**O'rta maxsus ta'lim tashkilotlari milliy reytingining
indikatorlari va ular bo'yicha ko'rsatkichlarni hisoblash tartibi**

T/r	Mezonlar va indikatorlar	Ball	Ko'rsatkichlarni shakllantirish formulasi
I. Pedagoglar salohiyati		35	
1.	“TOP-1 000” xorijiy oliy ta'lim tashkiloti diplomiga ega bo'lgan va (yoki) xorijdan jalb qilingan pedagoglar ulushi	10	$K_{1.1} = \frac{3P_1 + 2P_2}{P}$ <p>Bunda: P_1 – asosiy shtatda va ichki o'rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan xorijdan jalb qilingan pedagoglarning soni; P_2 – asosiy shtatda va ichki o'rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan “TOP-1 000” xorijiy oliy ta'lim tashkilotining diplomiga ega bo'lgan pedagoglarning soni; P – asosiy shtatda va ichki o'rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan pedagoglarning umumiy soni.</p>
2.	Malaka toifasiga ega pedagoglar ulushi	5	$K_{1.2} = \frac{3P_1 + 2P_2 + P_3}{P}$ <p>Bunda: P_1 – asosiy shtatda va ichki o'rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan bosh o'qituvchilarning soni; P_2 – asosiy shtatda va ichki o'rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan yetakchi o'qituvchilarning soni; P_3 – asosiy shtatda va ichki o'rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan katta o'qituvchilarning soni; P – asosiy shtatda va ichki o'rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan pedagoglarning umumiy soni.</p>
3.	Xorijiy tillar va umumta'lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va (yoki) xalqaro tan olingan sertifikatga ega pedagoglarning ulushi*	5	$K_{1.3} = \frac{3P_1 + 2P_2}{P}$ <p>Bunda: P_1 – asosiy shtatda va ichki o'rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan hamda xorijiy tillar va umumta'lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi xalqaro tan olingan sertifikatga ega bo'lgan pedagoglarning soni; P_2 – asosiy shtatda va ichki o'rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan hamda xorijiy</p>

			tillar va umumta'lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy sertifikatga ega bo'lgan pedagoglarning soni; P – asosiy shtatda va ichki o'rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan pedagoglarning umumiy soni.
4.	Malaka oshirish va (yoki) stajirovka dasturlarida ishtirok etgan pedagoglarning ulushi	5	$K_{1.4} = \frac{T_1 + T_2}{P}$ <p>Bunda: T_1 – asosiy shtatda va ichki o'rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan hamda respublika hududidagi malaka oshirish (stajirovka) kurslarida to'liq ishtirok etgan pedagoglarning soni; T_2 – asosiy shtatda va ichki o'rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan hamda xorijiy malaka oshirish (stajirovka) dasturlarida oflayn shaklda to'liq ishtirok etgan pedagoglarning soni; P – asosiy shtatda va ichki o'rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan pedagoglarning umumiy soni.</p>
5.	Ilmiy daraja (unvon)ga ega bo'lgan va (yoki) xalqaro va respublika tanlovlarida g'olib bo'lgan pedagoglarning ulushi	10	$K_{1.5} = \frac{4P_1 + 2P_2 + P_3}{P}$ <p>Bunda: P_1 – asosiy shtatda va ichki o'rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan DSc (fan doktori) ilmiy darajasi yoki professor unvoniga ega pedagoglarning soni; P_2 – asosiy shtatda va ichki o'rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan PhD (fan nomzodi) ilmiy darajasi yoki dotsent unvoniga ega pedagoglarning soni; P_3 – asosiy shtatda va ichki o'rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilangan nufuzli xalqaro va respublika ko'rik-tanlovlarida g'olib bo'lgan pedagoglarning soni; P – asosiy shtatda va ichki o'rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan pedagoglarning umumiy soni.</p>
II. Akademik faoliyat		15	
6.	O'quvchilar davomati	3	$K_{2.1} = \left(\frac{D_2 * T_k}{D_1} \right)$ <p>Bunda: D_1 – mavjud yo'nalishlarning o'quv rejalaridagi auditoriya yuklamalarining (soatlari) miqdori; T_k – o'quvchilarning umumiy soni; D_2 – o'quvchilar tomonidan sababsiz o'tkazib yuborilgan auditoriya soatlarining yig'indisi.</p>

7.	Qabul jarayonida talabgorlik darajasi	10	$K_{2.2} = \frac{A_t}{A_p}$ <p>Bunda:</p> <p>A_t – ta’lim tashkilotiga o’qishga kirish uchun hujjat topshirgan talabgorlarning soni; A_p – ta’lim tashkilotining umumiy qabul</p>
8.	O’quvchilarning ta’lim sifatidan qoniqish darajasi	2	<p>parametri</p> <p>Mazkur indikator umummilliy so’rovnoma natijalariga muvofiq shakllantiriladi.</p>
III. Bitiruvchilar sifati		30	
9.	Oliy ta’lim tashkilotlariga qabul qilingan bitiruvchilarning ulushi	15	$K_{3.1} = \frac{6B_1+4B_2+2B_3+B_4}{B}$ <p>Bunda:</p> <p>B_1 – “TOP-100” xorijiy oliy ta’lim tashkilotiga qabul qilingan bitiruvchilarning soni; B_2 – “TOP-500” xorijiy oliy ta’lim tashkilotiga qabul qilingan bitiruvchilarning soni; B_3 – “TOP-1 000” xorijiy oliy ta’lim tashkilotiga qabul qilingan bitiruvchilarning soni; B_4 – “TOP-1 000” ro’yxatiga kiritilmagan xorijiy yoki respublika oliy ta’lim tashkilotlariga qabul qilingan bitiruvchilarning soni (bundan o’rta maxsus ta’lim tashkilotining ta’sischisi (muassisi) hisoblangan oliy ta’lim tashkilotiga qabul qilingan bitiruvchilar mustasno); B – bitiruvchilarning umumiy soni.</p>
10.	Bitiruvchilarning bilim darajasi	5	$K_{3.2} = \frac{D_B}{B}$ <p>Bunda:</p> <p>D_B – ta’lim tashkilotidagi barcha bitiruvchilarning diplomlarida qayd etilgan bilimning yig’indisi; B – bitiruvchilarning umumiy soni.</p>
11.	O’rta maxsus ta’lim tashkilotining ta’sischisi (muassisi) hisoblangan oliy ta’lim tashkilotiga qabul qilingan bitiruvchilarning ulushi	10	$K_{3.3} = \frac{B_1}{B}$ <p>Bunda:</p> <p>B_1 – o’rta maxsus ta’lim tashkilotining ta’sischisi (muassisi) hisoblangan oliy ta’lim tashkilotiga qabul qilingan bitiruvchilar soni; B – bitiruvchilarning umumiy soni.</p>
IV. Xalqaro va respublika darajasida erishilgan yutuqlar		20	
12.	Nufuzli tanlovlarda g’olib hisoblangan o’quvchilarning ulushi	10	$K_{4.1} = \frac{6O'_1+3O'_2+O'_3}{O'}$ <p>Bunda:</p> <p>O'_1 – nufuzli xalqaro olimpiadalar g’oliblari hisoblangan o’quvchilarning soni; O'_2 – xalqaro va mintaqaviy xalqaro olimpiadalar, shuningdek asosiy olimpiadalar</p>

			<p>respublika bosqichi g'oliblari hisoblangan o'quvchilarning soni; O_3 – bilim va ko'nikmalarni standart va nostandart masalalar hamda amaliy topshiriqlarda qo'llay olish kompetensiya va malakalarni baholashga qaratilgan boshqa xalqaro va respublika darajasidagi tanlovlarning g'oliblari hisoblangan o'quvchilarning soni; O' – o'quvchilarning umumiy soni.</p>
13.	Xorijiy tillar va umumta'lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va (yoki) xalqaro tan olingan sertifikatga ega o'quvchilar ulushi**	10	<p>$K_{4.2} = \frac{3O'_1 + 2O'_2}{O'}$</p> <p>Bunda: O'_1 – xorijiy tillar va umumta'lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi xalqaro tan olingan sertifikatga ega o'quvchilarning soni; O'_2 – xorijiy tillar va umumta'lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy sertifikatga ega o'quvchilarning soni; O' – o'quvchilarning umumiy soni.</p>

Izoh:

*Mazkur indikatorni hisoblashda Xorijiy tillar va umumta'lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar [ro'yxatiga](#) (ro'yxat raqami 3515, 2024-yil 29-may) muvofiq pedagog xodimlarga [ustama belgilashda](#) qo'llaniladigan milliy va (yoki) xalqaro tan olingan sertifikatlar inobat olinadi.

**Ushbu indikatorni hisoblashda Xorijiy tillar va umumta'lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar [ro'yxatiga](#) (ro'yxat raqami 3515, 2024-yil 29-may) muvofiq oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga o'qishga kirishda [imtiyoz beradigan](#) umumta'lim fanlari bo'yicha milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar inobatga olinadi.

O'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlarining milliy reytingini yuritish va kasbiy ta'lim tashkilotlarini rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomga
3-ILOVA

Kasbiy ta'lim tashkilotlari milliy reytingining indikatorlari va ular bo'yicha ko'rsatkichlarni hisoblash tartibi

T/r	Mezonlar va indikatorlar	Ball	Ko'rsatkichlarni shakllantirish formulasi
I. Pedagoglar salohiyati		30	
1.	Ilmiy daraja (unvon)ga ega bo'lgan, xorijdan jalb qilingan va (yoki) "TOP-1 000" xorijiy oliy ta'lim tashkiloti diplomiga ega bo'lgan pedagoglarning ulushi	3	$K_{1.1} = \frac{P_1 + P_2 + P_3}{P}$ <p>Bunda: P_1 – asosiy shtatda va ichki o'rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan hamda ilmiy daraja (unvon)ga ega bo'lgan pedagoglarning soni; P_2 – asosiy shtatda va ichki o'rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan hamda xorijdan jalb qilingan pedagoglarning soni; P_3 – asosiy shtatda va ichki o'rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan hamda "TOP-1 000" xorijiy oliy ta'lim tashkiloti diplomiga ega bo'lgan pedagoglarning soni; P – asosiy shtatda va ichki o'rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan pedagoglarning umumiy soni.</p>
2.	Malaka toifasiga ega pedagoglar ulushi	6	$K_{1.2} = \frac{9P_1 + 4P_2 + 2P_3}{P}$ <p>Bunda: P_1 – asosiy shtatda va ichki o'rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan bosh o'qituvchilarning soni; P_2 – asosiy shtatda va ichki o'rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan yetakchi o'qituvchilar hamda kasbiy sertifikatga ega (1 va 2-toifali) ishlab chiqarish ta'lim ustalari soni;</p>

			<p>P_3 – asosiy shtat va ichki o‘rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan katta o‘qituvchilarning soni; P – asosiy shtat va ichki o‘rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan pedagoglarning umumiy soni.</p>
3.	Malaka oshirish va (yoki) stajirovka dasturlarida to‘liq ishtirok etgan pedagoglarning ulushi (bundan Kasbiy ta‘lim agentligi tomonidan malaka oshirish yoki tajriba almashish uchun xorijga yuborilgan pedagoglar mustasno)	5	$K_{1.3} = \frac{2P_1 + 2P_2 + P_3}{P}$ <p>Bunda: P_1 – asosiy shtatda va ichki o‘rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan va respublika hududidagi malaka oshirish (stajirovka) kurslarida to‘liq ishtirok etgan ishlab chiqarish ta‘limi ustalarining soni; P_2 – asosiy shtatda va ichki o‘rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan va respublika hududidagi umumta‘lim, umumkasbiy va maxsus fanlar bo‘yicha malaka oshirish (stajirovka) kurslarida to‘liq ishtirok etgan pedagoglarning soni; P_3 – asosiy shtatda va ichki o‘rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan va xorijiy malaka oshirish (stajirovka) kurslarida oflayn shaklda to‘liq ishtirok etgan pedagoglarning soni; P – asosiy shtatda va ichki o‘rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan pedagoglarning umumiy soni.</p>
4.	Kasbiy ta‘lim agentligi tomonidan malaka oshirish yoki tajriba almashish uchun xorijga yuborilgan pedagoglar ulushi	5	$K_{1.4} = \frac{2P_1 + 2P_2 + P_3}{P}$ <p>Bunda: P_1 – asosiy shtatda va ichki o‘rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan va malaka oshirish (tajriba almashish) uchun xorijga yuborilgan ishlab chiqarish ta‘limi ustalarining soni; P_2 – asosiy shtatda va ichki o‘rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan va malaka oshirish yoki tajriba almashish uchun xorijga yuborilgan umumkasbiy va maxsus fanlar pedagoglarining soni; P_3 – asosiy shtatda va ichki o‘rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan va malaka oshirish yoki tajriba almashish uchun xorijga yuborilgan umumta‘lim fanlari pedagoglarining soni; P – asosiy shtatda va ichki o‘rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan pedagoglarning umumiy soni.</p>

5.	Xorijiy tillar va umumta'lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va (yoki) xalqaro tan olingan sertifikatga ega pedagoglarning ulushi*	3	$K_{1.5} = \frac{2P_1 + P_2}{P}$ <p>Bunda: P_1 – asosiy shtatda va ichki o'rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan hamda xorijiy tillar va umumta'lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi xalqaro tan olingan sertifikatga ega bo'lgan pedagoglarning soni; P_2 – asosiy shtatda va ichki o'rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan hamda xorijiy tillar va umumta'lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy sertifikatga ega bo'lgan pedagoglarning soni; P – asosiy shtatda va ichki o'rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan pedagoglarning umumiy soni.</p>
6.	Pedagoglarning ta'lim tashkiloti tomonidan yaratilgan sharoitlardan qoniqish darajasi	3	Mazkur indikator umummilliy so'rovnoma natijalariga muvofiq shakllantiriladi.
7.	O'quv jarayoniga tashqi o'rindosh sifatida jalb qilingan soha mutaxassislari, xorijiy mutaxassislar va oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchilari ulushi	5	$K_{1.7} = \frac{P_1 + P_2 + P_3}{P + P_1 + P_2 + P_3}$ <p>Bunda: P_1 – tashqi o'rindosh sifatida ishlab chiqarish ta'lim ustasi, umumkasbiy va maxsus fan o'qituvchisi lavozimlarida mehnat faoliyatini olib borayotgan soha mutaxassislarning soni; P_2 – tashqi o'rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan xorijdan jalb qilingan mutaxassislarning soni; P_3 – tashqi o'rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchilari soni; P – asosiy shtatda va ichki o'rindosh sifatida mehnat faoliyatini olib borayotgan pedagoglarning umumiy soni.</p>
II. Kasbiy-akademik faoliyat		25	
8.	O'quvchilarning ta'lim sifatidan qoniqish darajasi	3	Mazkur indikatorlar umummilliy so'rovnoma natijalariga muvofiq shakllantiriladi.
9.	O'quvchilarning yaratilgan sharoitlar, shu jumladan ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi, darsdan tashqari mashg'ulotlar va sport bilan doimiy	3	

	shug'ullanish imkoniyatlardan qoniqish darajasi		
10.	Moddiy-texnik bazaning mavjudligi, shu jumladan, zarur jihozlar, laboratoriya va ustaxonalar bilan ta'minlanganlik darajasi	3	
11.	O'quvchilar davomati	2	$K_{2.3} = \left(\frac{D_2 * T_k}{D_1} \right)$ <p>Bunda: D_1 – mavjud kasb va mutaxassisliklarning o'quv rejalaridagi auditoriya yuklamalarining (soatlari) miqdori; T_k – o'quvchilarning umumiy soni; D_2 – o'quvchilar tomonidan sababsiz o'tkazib yuborilgan auditoriya soatlarining yig'indisi.</p>
12.	Qabul parametrlarining kasb va mutaxassisliklar kesimida bajarilishi darajasi	4	$K_{2.4} = \frac{Q_1 + Q_2 + Q_3 + \dots + Q_n}{M_s}$ <p>Bunda: $Q_1 + Q_2 + Q_3 + \dots + Q_n$ – kasbiy ta'lim tashkilotidagi har bir kasb va mutaxassisliklar kesimida qabul parametrlari bajarilishining foizdagi ko'rsatkichlari, bunda qabul parametrlari to'liq yoki oshiqcha bajarilgan taqdirda mazkur ko'rsatkich 100 foiz deb qabul qilinadi; M_s – kasb va mutaxassisliklar soni.</p>
13.	Xalqaro va qo'shma ta'lim dasturlari soni hamda ularda tahsil olayotgan o'quvchilarning ulushi	10	$K_{2.5} = 2 \frac{O'_1}{O'} + \frac{P_1}{P_{max}}$ <p>Bunda: O'_1 – xalqaro va qo'shma ta'lim dasturida tahsil olayotgan o'quvchilarning soni; O' – o'quvchilarning umumiy soni; P_1 – xalqaro va qo'shma dasturlar soni; P_{max} – kasbiy ta'lim tashkilotlari o'rtasida eng ko'p xalqaro va qo'shma ta'lim dasturlarga ega bo'lgan kasbiy ta'lim tashkilotining xalqaro va qo'shma ta'lim dasturlari soni.</p>
III. Ishlab chiqarish korxonalarini bilan hamkorlik va bitiruvchilar sifati		35	

14.	Ish beruvchi tashkilotlar tomonidan bitiruvchilar faoliyatidan qoniqish darajasi	2	Mazkur indikator umummilliy so'rovnomaga muvofiq shakllantiriladi.
15.	Ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi hamda tijoratlashtirish faoliyati samaradorligi	5	$K_{3.2} = \frac{2A_1 + A_2}{O'} K_h$ <p>Bunda: A_1 – ishlab chiqarilgan mahsulotlar (tovarlar, ish va xizmatlar)ni davlat xaridlari asosida sotishdan olingan mablag'lar miqdori; A_2 – ishlab chiqarilgan mahsulotlar (tovarlar, ish va xizmatlar)ni sotishdan va boshqa ta'lim xizmatlarini ko'rsatishdan tushgan mablag'lar miqdori; K_h – kasbiy ta'lim tashkiloti joylashgan hudud bo'yicha tuzatish koeffitsiyenti: Qoraqalpog'iston Respublikasi – 1,15, viloyatlar – 1, Toshkent shahri – 0,85; O' – o'quvchilarning umumiy soni.</p>
16.	Kasbiy ta'lim tashkilotida dual ta'limning ulushi	8	$K_{3.3} = \frac{O'_1}{O'}$ <p>Bunda: O'_1 – dual ta'lim shaklida tahsil olayotgan o'quvchilarning soni; O' – o'quvchilarning umumiy soni.</p>
17.	Bitiruvchilarning bandlik holati	20	$K_{3.4} = \frac{3B_1 + 2B_2 + B_3}{B}$ <p>Bunda: B_1 – yakka tartibdagi tadbirkor yoki ta'sischi sifatida faoliyat ko'rsatayotgan bitiruvchilarning soni; B_2 – davlat organi yoki xo'jalik yurituvchi subyektda mehnat faoliyatini olib borayotgan bitiruvchilar soni; B_3 – ta'limning keyingi bosqichi bilan qamrab olingan, ikki yoshgacha bola parvarishi bilan band, 1-2 guruh nogironi, o'zini o'zi band qilgan bitiruvchilarning soni; B – bitiruvchilarning umumiy soni.</p>
IV. O'quvchilarning xalqaro va respublika darajasida erishgan yutuqlari		10	
18.	Nufuzli tanlovlarda g'olib hisoblangan o'quvchilar ulushi	5	$K_{4.1} = 3 \frac{6O'_1 + 4O'_2 + 2O'_3 + O'_4}{O'} + \frac{4O'_5 + 2O'_6 + O'_7}{O'}$

			<p>Bunda:</p> <p>O₁ – “WorldSkills” xalqaro chempionatida g‘olib bo‘lgan o‘quvchilarning soni;</p> <p>O₂ – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun “Kasbiy mahorat milliy tanlovi”ning respublika darajasida g‘olib bo‘lgan o‘quvchilarning soni;</p> <p>O₃ – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun “Kasbiy mahorat milliy tanlovi”ning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri darajasida g‘olib bo‘lgan o‘quvchilarning soni;</p> <p>O₄ – bilim va ko‘nikmalarni standart va nostandart masalalar hamda amaliy topshiriqlarda qo‘llay olish kompetensiya va malakalarni baholashga qaratilgan boshqa xalqaro darajadagi kasbiy tanlovlarning g‘oliblari hisoblangan o‘quvchilarning soni;</p> <p>O₅ – nufuzli xalqaro olimpiadalar g‘oliblari hisoblangan o‘quvchilarning soni;</p> <p>O₆ – xalqaro va mintaqaviy xalqaro olimpiadalar, shuningdek asosiy olimpiadalarning respublika bosqichi g‘oliblari hisoblangan o‘quvchilarning soni;</p> <p>O₇ – bilim va ko‘nikmalarni standart va nostandart masalalar hamda amaliy topshiriqlarda qo‘llay olish kompetensiya va malakalarni baholashga qaratilgan boshqa xalqaro darajadagi tanlovlarning g‘oliblari hisoblangan o‘quvchilarning soni;</p> <p>O’ – o‘quvchilarning umumiy soni.</p>
19.	Xorijiy tillar va umumta’lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va (yoki) xalqaro tan olingan sertifikatga ega o‘quvchilar ulushi**	5	$K_{4.2} = \frac{2O'_1 + O'_2}{O'}$ <p>Bunda:</p> <p>O₁ – xorijiy tillar va umumta’lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi xalqaro tan olingan sertifikatga ega o‘quvchilarning soni;</p> <p>O₂ – xorijiy tillar va umumta’lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy sertifikatga ega o‘quvchilarning soni;</p> <p>O’ – o‘quvchilarning umumiy soni.</p>

Izoh:

*Mazkur indikatorni hisoblashda Xorijiy tillar va umumta’lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar [ro‘yxatiga](#) (ro‘yxat raqami 3515, 2024-yil 29-may) muvofiq pedagog xodimlarga [ustama belgilashda](#) qo‘llaniladigan milliy va (yoki) xalqaro tan olingan sertifikatlar inobat olinadi.

**Ushbu indikatorni hisoblashda Xorijiy tillar va umumta’lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar [ro‘yxatiga](#) (ro‘yxat raqami 3515, 2024-yil 29-may) muvofiq oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga o‘qishga kirishda [imtiyoz beradigan](#) umumta’lim fanlari bo‘yicha milliy

va xalqaro tan olingan sertifikatlar inobatga olinadi.